V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

RAHMONOV ASKAR AHMADOVICH

KASR DIFFUZIYA-TO‘LQIN TENGLAMASI UCHUN KOEFFITSIYENTLI TESKARI MASALALARNING KORREKTLIGI

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA DOKTORLIK (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

UDK: 517.95

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of doctoral dissertation (DSc) abstract on

physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc) по физико-математическим наукам

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

RAHMONOV ASKAR AHMADOVICH

KASR DIFFUZIYA-TO‘LQIN TENGLAMASI UCHUN KOEFFITSIYENTLI TESKARI MASALALARNING KORREKTLIGI

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA DOKTORLIK (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/FM266 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus(rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (http://kengash.mathinst.uz) va “ZiyoNet” ta’lim axborot tarmog‘iga http://www.ziyonet.uz/ joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Qodirqulov Baxtiyor Jalilovich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
	Shishkina Elina Leonidovna fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “27” may soat 17:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (203-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “13” may kuni tarqatildi.
(2025 yil “13” maydagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori, akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

A.A. Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori, akademik

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi vaqtlarda fanning jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri – bu kasr tartibli differensial tenglamalar hisoblanadi. Butun bo‘lmagan tartib hisobi - bu an’anaviy ravishda “Kasr hisob” deb ataladigan matematikaning bir bo‘limi bo‘lib, unda klassik hosilalar va integrallarni interpolyatsiya qilishga harakat qilinadi va ularni har qanday tartib uchun umumlashtiradi, bunda hosila tartibi natural bo‘lishi shart emas. Ushbu soha oxirgi yillarda katta ahamiyat kasb etmoqda, chunki u klassik modellar orqali to‘g‘ri ifodalanmagan murakkab tizimlar va hodisalarni tavsiflash imkonini beradi. Xususan, butun bo‘lmagan hosila tartiblarini o‘z ichiga olgan kasr differensial tenglamalar, xotira, irsiy ta’sirlar va lokal bo‘lmagan o‘zaro ta’sirlar ko‘rsatilgan fizik, biologik va muhandislik jarayonlarini aniqroq modellashtirish imkonini beradi. Kasr diffuziya-to‘lqin tenglamalari uchun teskari koeffitsiyentli masalalarning korrektligi matematik modellashtirish sohasidagi eng muhim masalalardan biridir. Teskari masalalar, kuzatilgan ma’lumotlarga asoslanib, tenglamalardagi boshqaruvchi noma’lum parametrlarni, masalan, koeffitsiyentlarni aniqlash maqsad qilinadi. Ular, tasvirni qayta tiklash, materiallarni xarakterlash va bir jinsli muhitda anomal diffuziya va to‘lqin tarqalishini o‘rganish kabi ko‘plab amaliy masalalarda juda muhimdir. Zamonaviy tizimlarning ortib borayotgan murakkabligi, ayniqsa fraktal yoki nolokallik xususiyatlarga ega bo‘lgan tizimlarning ko‘pligi, ushbu teskari masalalarni to‘g‘ri va samarali hal qilish uchun qat’iy usullarni talab qiladi. Shu sababli, bunday masalalarni korrektligini o‘rganishga bo‘lgan talab, nazariy va amaliy jihatlardan kelib chiqadi, chunki fraktal modellarning fizika, moliya, biotexnologiya va muhandislik kabi sohalarda haqiqiy jarayonlarni tavsiflashda zaruriyati ortib bormoqda. Ushbu teskari masalalarining matematik va hisoblash jihatlarini tushunish, tajriba ma’lumotlarini yanada aniqroq talqin qilish va real vaqt rejimida ilovalar uchun algoritmlarni takomillashtirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda jahonda xususiy hosilali kasr tartibli tenglamalarni yechishni o’rganish bilan bir qatorda tenglamaning koeffitsiyentlari, uning o‘ng tomonini va integral ostidagi yadroni aniqlashga oid teskari masalalarni yechishni o‘rganish juda muhim ahamiyatga ega. Teskari masalalarni o‘rganish bizga kasr tartibli tenglama bilan berilgan jarayonlarni o‘rganish, tahlil qilish va boshqarish imkoniyatlarini beradi. Masalan, bir jinsli tor tebranish jarayonlarini olsak, yechimning boshlang‘ich holatlarini xarakteristik uchburchak asosida bilishimiz bizga tor tebranishini chegaradan boshqarish imkoniyatini beradi. Vaqt bo‘yicha kasr tartibli tenglamani qarasak, bunda kasr tartibli hosilaning tartibi 1 va 2 oralig‘ida bo‘lsa, bir vaqtda diffuziya va to‘lqin tarqalish jarayonlarini aks ettiradi, agar 0 va 1 oralig‘ida bo‘lsa, sekin sodir bo‘luvchi diffuziya jarayonlarini ifodalaydi. Masalan, optik tolalar orqali signalning tarqalishi, elektromagnit to‘lqinlarning to‘g‘ri yo‘nalishda o‘tishini va ularning materialga ta’sirini modellashtirishda kasr differensial tenglamalar ishlatiladi va shuning uchun ham kasr tartibli differensial tenglamalarni o‘rganish dolzarb ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda zamonaviy fanga ilmiy va amaliy ahamiyatga ega boʻlgan differensial tenglamalar va matematik fizikaning zamonaviy muammolariga alohida e’tibor qaratilgan. Shu jumladan, kasr hosilali tenglamalar uchun toʻgʻri va teskari masalalarni tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu yoʻnalish dunyo ilm-fanida nisbatan yangi boʻlishiga qaramasdan, Oʻzbekiston olimlari bu sohada sezilarli natijalarga erishishdi va ularni faol tadqiq etishda davom etmoqdalar. Matematika fanlarining, xususan, differensial tenglamalar va matematik fizikaning ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha dunyo standartlari darajasida ilmiy izlanishlar olib borish V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatidagi asosiy masaladir[1]. Chegaralangan va chegaralanmagan sohalarda berilgan kasr hosilali differensial tenglamalar uchun toʻgʻri va teskari masalalarni tadqiq etishni rivojlantirish differensial tenglamalar va matematik fizikaning zamonaviy nazariyasidagi muhim yoʻnalish hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi PF-4947-sonli Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi «Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PQ-4387 sonli qarori, 2020-yil 7-maydagi «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PQ-4708-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Dissertatsiya Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi boʻyicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Kasr tartibli hosilali differensial va xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun toʻgʻri va teskari masalalar bilan dunyoning deyarli barcha universitetlarida, ilmiy tekshirish institutlarida va ilmiy markazlarida izlanishlar olib borilmoqda. Bunga misol sifatida ba’zilarini sanab oʻtamiz. Dunyoning yetakchi universitetlaridan Jon Xopkins universiteti (AQSh), Tokio universiteti (Yaponiya), Berlin amaliy ilmlar texnika universiteti (Germaniya), New Haven universiteti (AQSh), Berlin universiteti (Germaniya), Belorussiya davlat universiteti (Belorussiya), Xokkaydo universiteti (Yaponiya), La Rochelle universitetida (Fransiya), Amaliy matematika va avtomatlashtirish instituti (Rossiya), Ukraina Milliy Fanlar Akademiyasining Matematika Instituti (Ukraina), Yaqin Sharq universiteti (Turkiya), Xalqaro qozoq-turk universiteti (Qozogʻiston) va boshqalar.

---

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 292-sonli qarori.

Kasr tartibli differensial tenglamalarning koeffitsiyentlarini aniqlash bo‘yicha teskari masalalar Tokio universiteti professori M. Yamamoto (Yaponiya), Ho Chi Minh universiteti professori N.H. Tuan (Vetnam), Janubiy-Sharqiy universiteti professori H. Wang (Xitoy), Nankin axborot fanlari va texnologiyalari universiteti professori B. Wu (Xitoy) va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Ular tomonidan ishlab chiqilgan usul teskari masalaning yechimi yagonaligini ta’minlab beradi xolos. Amerika Qo‘shma Shtatlari New Haven universiteti professori S. Umarov va O‘zbekiston Respublikasi FA qoshidagi Matematika instituti professori R. Ashurovlar tomonidan kasr tartibli diffuziya tenglamasining kasr hosila tartibini aniqlash bo‘yicha teskari masala yechimini bir qiymatli aniqlashning yangi shartlari olingan.

Kasr tartibli differensial va xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun turli boshlang‘ich, boshlang‘ich-chegaraviy va orqaga qaytish masalalari ko‘pgina olimlar tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Kasr diffuziya-to‘lqin tenglamalari uchun Koshi masalalari A. Kochubey (Ukraina), A. Psxu (Rossiya) va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan. Diffuziya tenglamalari uchun boshlang‘ich vaqt va tayinlangan vaqtdagi qiymatlarini bog‘lovchi nolokal shart bilan A. Ashyaraliyev (Turkiya) va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan. Chegaralangan va chegaralanmagan sohada berilgan kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun koeffitsiyentli teskari masalalar bilan bog‘liq muammolar deyarli o‘rganilmagan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Ma’lumki ko‘plab adabiyotlarda, kasr hosilaning bir nechta ta’riflari taklif qilingan. Masalan, ular orasida ko‘p uchraydigani Riman-Liuvill (D_{0+}^{α}) va Gerasimov-Kaputo (∂_t^{α}) kasr hosilalaridir. Riman-Liuvill kasr hosilasi sof matematikada qo‘llanilishida muhim ahamiyat kasb etsada, Gerasimov-Kaputo kasr hosilasi amaliy masalalarni hal qilishda qo‘llaniladi. Haqiqatdan ham, 1948 yilda birinchilardan bo‘lib Aleksey Gerasimov kasr hosila tushunchasini o‘zining “Chiziqli deformatsiya qonunlarining umumlashmasi va ularning ichki ishqalanish masalalariga qo‘llanilishi” nomli maqolasida keltirib o‘tgan bo‘lsa, undan yigirma yildan so‘ng, aniqrog‘i 1967 yilda Mishel Kaputo “Q chastotaga deyarli bog‘liq bo‘lmagan tarqalishning chiziqli modellari” nomli maqolasida bu tushunchaga to‘xtalib o‘tgan. Gerasimov-Kaputo kasr hosilasi fizik jihatdan talqin qilinadigan boshlang‘ich shartlarni qo‘llashga imkon beradi, biroq Riman-Liuvill hosilasida esa boshlang‘ich shartlarni odatdagidek berib bo‘lmaydi.

Muayyan bir hodisani ifodalaydigan differensial tenglamani ko‘rib chiqishda kasr modellashtirishni qo‘llashning keng tarqalgan usuli, natural tartibdagi hosilalarni natural bo‘lmagan tartibdagi hosilalar bilan almashtirishdir, odatda bu hosilalarning tartibi asl hosilalarning tartibidan kichik yoki unga teng bo‘ladi. Shuning uchun odatdagi yechim maxsus hol sifatida qayta tiklanadi va bu Shnayder, Viss, Maynardi, Luchko, Podlubny, Psxu, Shishkina va Sitnik, Tarasova va Tarasov, Uchaykin kabi olimlarning ishlarida ko‘rish mumkin. Kasr hosilali tenglamalar anomal diffuziya tarqalishida, fizikada, mexanikada, kimyoda, hamda muhandislikdagi turli jarayonlarni o‘rganishda qo‘llaniladi. Diffuziya tenglamasi fraktallardan boshlab, muhim fizik hodisalar uchun matematik modeldir. Issiqlikning normal tarqalishida (issiqlik tenglamasi yoki umumiyroq parabolik tenglamalar bilan tasvirlangan) diffuzion zarrachaning oʻrtacha kvadratik siljishi $t \to \infty$ da $const \cdot t$ kabi harakat qiladi. Matematik nuqtai nazardan oddiy sanalgan anomal diffuziya uchun oʻziga xos harakat $conts \cdot t^{\alpha}$ kabi boʻlib, bu kasr diffuziya tenglamasini kiritilishiga sabab boʻldi. Bundan tashqari, kasr differensial tenglamaning statistik mexanika bilan bogʻlanishi mavjud boʻlib, u M.M. Meerschaert va uning ilmiy hamkorlari tomonidan taqdim etilgan. Bu kabi masalalar tenglamaning fundamental yechimi bilan bevosita bogʻliqdir. Kasr tartibli diffuziya-toʻlqin tenglamasi uchun Koshi masalasining fundamental yechimi 1990 yilda Shnayder-Viss va Kochubeylar $(0 < \alpha < 1)$ tomonidan mustaqil ravishda topilgan. Masalan, Shneider va Wysslar tomonidan

$$\begin{cases} \partial_t^{\alpha} u = \Delta u, \quad x \in \mathbb{R}^N, t > 0, m-1 < \alpha < m, m \in \mathbb{N}, \\ \partial^k u / \partial t^k (x, 0) = f_k(x), 0 \le k \le m-1 \end{cases}$$

koʻrinishidagi Koshi masalasi $0 < \alpha < 2$ uchun qaralgan boʻlib, bu masalaning fundamental yechimi olingan va uning yordamida masala yechimini beruvchi formula qurilgan. Ammo Schneider va Wysslar tomonidan olingan formulaning klassik yechim boʻlishi koʻrsatilmagan, biroq Kochubeyning ishida qurilgan formulaning klassik yechim boʻlishi masalasi toʻliq hal qilingan. Undan tashqari, ixtiyoriy $m \in \mathbb{N}$ uchun 2006 yilda Voroshilov va Kilbaslar tomonidan yuqoridagi Koshi masalasi yechimini beruvchi formula maxsus funksiyalar, ya’ni, Mittag-Leffler $E_{\alpha,\beta}(z)$, Besselning uchinchi tur $K_{\nu}(z)$ va Foksning H-funksiyalari yordamida qurilgan. Biroq, bu ishda olingan formulalar haqiqatdan qaralayotgan Koshi masalasining yechimi boʻlishi ochiq qoldirilgan. Oradan koʻp otmay, ya’ni, 2007 yilda shu mualliflar tomonidan “Doklady Mathematics” jurnalida chop qilingan ishda yuqoridagi ochiq qolgan masala hal qilingan. 2009 yilda Psxu tomonidan umumiy kasr hosila uchun kasr diffuziya-toʻlqin tenglamasining fundamental yechimi topilgan va undan foydalanib, kasr va butun tartibli issiqlik, toʻlqin tarqalish tenglamalari oʻrtasidagi bogʻliqlik keltirib oʻtilgan. Shuni aytish joizki, Psxu tomonidan olingan natija yuqoridagi barcha natijalarni umumlashtirgan va kasr tartibli differensial tenglama uchun Koshi masalasi yechimini olishda foydalaniladigan fundamental yechim va uning xossalari masalasi toʻliq hal etilgan. Tenglamadagi elliptik had umumiyroq boʻlganda, shu kabi masalalar Eydelmen va Kochubeylar tomonidan hal qilingan. Biroq olingan barcha natijalar faqat chiziqli masalalar uchun boʻlib, chiziqli boʻlmagan holatda masalalar yechimini oʻrganish hali ham ochiq qolmoqda.

Shuningdek, ushbu dissertatsiyaning asosiy qismi chegaralangan sohada kasr tartibli differensial tenglamalar uchun boshlangʻich-chegaraviy masalalarni, jumladan, toʻgʻri, orqaga qaytish (teskari vaqtli) va teskari masalalarni oʻrganishga bagʻishlangan. Diffuziya-toʻlqin jarayoni uchun teskari vaqtli masalalar muhandislik sohalarda katta ahamiyatga ega boʻlib, ular jarayonning avvalgi holatini (masalan, boshlangʻich vaqtdagi holatini) uning hozirgi ma’lumotlari asosida aniqlashga qaratilgan. Biroq, bunday masalalarni o‘ziga xosligi shundaki, tenglamada Riman-Liuvill yoki Gerasimov-Kaputo kasr hosilalari qo‘llanilishidan qat’iy nazar, bu masala Adamar ma’nosida nokorrekt hisoblanadi. Shunga qaramay, quyidagi

$$\begin{cases} \partial_t^\alpha u(t) + Au(t) = f(t), \quad 0 < t \leq T, \\ u(T) = \Phi \end{cases}$$

masala $0 < \alpha < 1$ uchun akademik Alimov va professor Ashurovlar tomindan to‘liq tadqiq qilingan, bu yerda A-o‘z-o‘ziga qo‘shma, musbat, chegaralanmagan ixtiyoriy elliptik operator. Yuqoridagi tenglama $u(\xi) = \gamma u(0) + \varphi, \gamma = const \neq 0, 0 < \xi \leq T$ boshlang‘ich shart bilan birgalikda Ashurov va Fayziyevlar tomonidan to‘liq o‘rganilgan. Mualliflar nafaqat orqaga qaytish masalalarni, balki chiziqli teskari masalalarni ham o‘rganishgan, ya’ni manba va boshlang‘ich shartdagi funksiyalarni topish masalalari o‘rganilgan. Undan tashqari, Floridia, Yamamoto va Liu ishlarida kasr diffuziya va diffuziya-to‘lqin tenglamalari uchun teskari vaqtli masalalar va manba funksiyasini aniqlashning teskari masalalari tadqiq qilingan. Biroq, oldingi ishlarda faqat chiziqli to‘g‘ri va teskari masalalar o‘rganilgan bo‘lib, shu bilan birga ushbu dissertatsiya ishi chiziqli bo‘lmagan teskari masalalarga oid ochiq muammolarni yetarlicha o‘rganishga va metodlar taklif etishga bag‘ishlangan. Shuningdek, ushbu dissertatsiya dunyoning yetakchi olimlari, xususan, Al-Salti, Aloroyev, Kirane, Malik, Cheng, Eydelman, Gong, Wei, Wang, Wu, Ismailov, Jin, Rundell, Kochubey, Psxu, Elina, Lopushansky, Lopushanska, Yamamoto, Liao, Li, Liu, Luchko, Rujansky, Settara, Atmania, Sun, Jang, hamda yurtimiz olimlari akademik Alimov, professorlar Ashurov, Durdiyev, Karimov va boshqalarning ilmiy ishlariga tayangan bo‘lib, kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni o‘rganishga qaratilgan.

Dissertatsiya ishining ilmiy-izlanish rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Buxoro bo‘linmasining «Matematik fizikaning teskari masalalari» mavzusidagi kalendar rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kasr differensial va integro-differensial diffuziya-to‘lqin tenglamalari uchun to‘g‘ri, orqaga qaytish va teskari masalalarning yagona yechilishishi o‘rganish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

vaqt bo‘yicha birinchi va kasr tartibli differensial tenglama uchun Koshi masalasi yechimini qurish, olingan formulaning yechim ekanligini va uning yagonaligini isbotlash;

chegaralanmagan sohada berilgan kasr diffuziya tengmalasidan koeffitsiyentni aniqlashning nochiziqli teskari masalani yechish;

kasr tartibli diffuziya tenglamasi uchun manba funksiyasini aniqlash teskari masalasini tadqiq qilish;

kasr tartibli diffuziya va to‘lqin tenglamalari uchun vaqt bo‘yicha nolokal boshlang‘ich shartli to‘g‘ri va nochiziqli teskari masalalarni yechish;

abstrak kasr diffuziya tenglamasi uchun Koshi masalasidan vaqt o‘zgaruvchisiga bog‘liq koeffitsiyentni topish bo‘yicha to‘g‘ri va nochiziqli teskari masalalarni yechish;

to‘g‘ri masala yechimiga ikkita nuqtada shartlar berish orqali tenglamadagi koeffitsiyent va xotira funksiyasini topishga oid nochiziqli teskari masalani yechish;

nolokal boshlang‘ich shartli kasr tartibli diffuziya tenglamasidan xotira funksiyasini aniqlash;

teskari vaqtli kasr tartibli abstrak Koshi masalasidan vaqt o‘zgaruvchisiga bog‘liq xotira funksiyasini topish bo‘yicha to‘g‘ri va teskari masalalarni yechish.

Tadqiqotning ob’ekti. Riman-Liuvill, Gerasimov-Kaputo kasr tartibli hosilalar, Mittag-Leffler funksiyalari, Foks funksiyasi, vaqt bo‘yicha kasr tartibli tenglamalar.

Tadqiqotning predmeti. Dissertatsiyaning tadqiqot predmeti xususiy hosilalali va kasr tartibli chekli o‘lchamli va ixtiyoriy elliptik operatorli differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri, orqaga qaytish va teskari masalalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida matematik analiz, funksional analiz, differensial tenglamalar va matematik fizika usullaridan foydalanilgan. Matematik fizika usullaridan o‘zgaruvchilarni ajratish usuli va integral energiya usuli qo‘llaniladi hamda Hilbert fazosida xos funksiyalar sistemasining to‘la ekanligi tadbiq qilinadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bir o‘lchamli kasr differensial tenglama uchun qo‘yilgan Koshi masalasining yechimi qurilgan va berilgan funksiyaga yetarlilik shartini qo‘yib, masalaning yagona klassik yechim mavjudligi isbotlangan;

chegaralanmagan sohada kasr diffuziya tenglamasi bilan bog‘liq to‘g‘ri va nochiziqli teskari masalalarning yagona yechilishi uchun berilganlarga yetarlilik shartlar topilgan va tenglamaning o‘ng tomonini topish bo‘yicha to‘g‘ri va chiziqli teskari masalalarning yechimi mavjud va yagonaligi isbotlangan;

kasr tartibli diffuziya va to‘lqin tenglamalari uchun qo‘yilgan vaqt bo‘yicha nolokal boshlang‘ich shartli to‘g‘ri va nochiziqli teskari masalalar yechiming mavjudlik va yagonalik haqidagi teoremalar isbotlangan;

abstrak kasr diffuziya tenglamasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasi korrektligi va vaqt o‘zgaruvchisiga bog‘liq koeffitsiyentli teskari masalaning shartli korrektligi ko‘rsatilgan;

kasr diffuziya-to‘lqin tenglamasidan koeffitsiyent va xotira funksiyasini topish haqidagi nochiziqli teskari masalaning yagona yechimi mavjudligi haqidagi teorema isbotlangan;

Gerasimov-Kaputo kasr hosila ishtirok etgan ko‘p o‘lchamli kasr diffuziya tenglama uchun nolokal boshlang‘ich shartli to‘g‘ri va nochiziqli teskari masalalarning yagona yechiluvchanligi haqidagi teorema isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Dissertatsiya ishida olingan natijalar nazariy xarakter kasb etib, kasrt tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarni tadqiq qilish usullari taklif etiladi. Shu bilan birga tenglamaning o‘ng tomonini, vaqt o‘zgaruvchisiga bog‘liq koeffitsiyentni hamda xotira funksiyasini aniqlash bo‘yicha teskari masalalarni yechish usullari bayon qilinadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining va xulosalarining ishonchliligi differensial tenglamalar, matematik analiz, funksional analiz va operatorlar nazariyasi, matematik fizika metodlariga asoslangan qat’iy matematik isbotlar bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kasr tartibli differensial va integro-differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalar nazariyasini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati ularning kasr tartibli tenglamalar bilan berilgan jarayonlarni o‘rganishda, nazorat qilishda va boshqarishda qo‘llanilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kasr duffuziya-to‘lqin tenglamasi uchun to‘g‘ri va teskari masalalar bo‘yicha olingan natijalar asosida:

kasr tartibli diffuziya-to’liq tenglamasi uchun qo‘yilgan nolokal boshlang‘ich va bir jinsli Dirixle shartli masalalarning yechimi mavjud va yagona bo‘lishlik shartlaridan IL-21071166 raqamli «Shamolning past tezligi uchun mo‘ljallangan vertikal o‘qli shamol turbinasini yaratish» mavzusidagi innovatsion loyihada shamol trubinalarining samarali parametrlarini aniqlash maqsadida tuzilgan matematik model tenglamalarini taqribiy yechishda foydalanilgan (Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi inisitutining 2025 yil 25 martdagi №281-3-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi Koltunov yadroli giperbolik tipdagi differensial tenglamalar uchun masalalarning sonli modellarini qurish imkonini bergan;

Chegaralangan sohalarda berilgan diffuziya va superdiffuziya differensial tenglamalari uchun koeffitsiyent va xotira funksiyalarini bir qiymatli aniqlash natijalaridan №-122041100096-4 raqamli «Sotsiologiyada, geofizikada va muhandislik fanlarida matematik modellashtirish» mavzusidagi xorijiy loyihasida yer osti qavariq muhitlarni tekshirishda foydalanilgan (Rossiya Fanlar akademiaysining Vladikavkaz ilmiy markazi Federal davlat ilmiy muassasasi Federal ilmiy markazi filali Janubiy matematika institutining, 2025 yil 24 martdagi 18-sonli ma’lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi yer osti qovushqoq muhitlarda to‘lqin hodisasini kuzatish imkoni bergan;

subdiffuziya tenglamalari uchun orqaga qaytish, nolokal boshlang‘ich va birinchi chegaraviy masalalardan vaqt o’zgaruvchisiga bog‘liq koeffitsiyentni bir qiymatli aniqlash natijalaridan AP09258836 raqamli “Anomal diffuziya uchun differensial matematik modellarga sonli algoritmlarni ishlab chiqish” mavzusidagi xorijiy fundamental loyihasida haroratning o‘zgarishini tekshirishda foydalanilgan (Hoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro Qozoq-Turk universitetining, 2025 yil 2 apreldagi 04/857-sonli ma’lumotnomasi, Qozog‘iston). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi suv havzalardagi issiqlik almashinish jarayonini kuzatish imkoni bergan;

nolokal boshlang‘ich shartli kasr tartib subdiffuziya va superdiffuziya tenglamalari uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalardan koeffisient va xotira funksiyasini topishdan xorijiy ilmiy jurnallardaGI maqolalarda nolokal bigarmonik operatorli kasr parabolik tenglama uchun teskari masalalarni echishda foydalanilgan (Fractal and Fractional, 2023, 7(5) 404, Physica Scripta, 2024, 99(10) 105242, AIMS Mathematics, 2023, 9(3), 6832-6849). Ilmiy natijalarni qo‘llanishi ikki o‘lchamli nolokal shartli kasr parabolik tenglamadan manba funsiyasini topish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari quyidagi xalqaro va respublika ilmiy konferensiyalarda muhokama qilingan: «6-Xalqaro matematika fanlari konferensiyasi ICMS» (Istanbul 2022), «Ilmiy amaliy matematika va axborot texnologiyalarining zamonaviy muammolari al-Xorazmiy» (Farg‘ona 2021), «Amaliy matematika va axborot texnologiyalarining dolzarb muammolari-al-Xorazmiy» (Samarqand 2023), «Operator algebralar, no-assotsiativ strukturalar va ularga oid muammolar» (Toshkent 2022), «Fizika, matematika va mexanikaning dolzarb muammolari» (Buxoro 2023), «Tartib tahlili va matematik modellashtirishga oid muammolar, XVII. Operator nazariyasi va differensial tenglamalar» (Vladikavkaz 2021), «Matematik analiz va zamonaviy matematik fizika qo‘llanmalari» (Samarqand 2022), «Tartib tahlili va matematik modellashtirishga oid muammolar, XVII. Operator nazariyasi va differensial tenglamalar» (Vladikavkaz 2023), «Amaliy matematika va axborot texnologiyalarining zamonaviy muammolari al-Xorazmiy» (Toshkent 2024), «Qozog‘iston Respublikasining Fan kuni munosabati bilan an’anaviy Xalqaro aprel matematika konferensiyasi» (Olmaota 2023).

Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Milliy Universitetining “Differensial tenglamalar va matematik fizikaning zamonaviy muammolari”, Matematika institutining “differensial tenglamalar va matematik fizika” hamda Matematika instituti Buxoro bo‘linmasining “Matematik fizikaning zamonaviy masalalari” nomli seminlarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shundan 15 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan, 9 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan, 6 tasi respublika jurnallarida chop etilgan ilmiy maqolalar va 12 ta tezis nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, 4 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 212 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruratini asoslash, tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy mutaxassislar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarga taqriz berilgan va mahalliy olimlar tomonidan masalaning o‘rganilganlik darajasi, maqsad, vazifalar, tadqiqot ob’ekti va predmeti, ilmiy yangilik bayoni, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, asosiy natijalarni amalga oshirish to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettirilgan va nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi **«Boshlang‘ich tushunchalar va vaqt-kasr differensial tenglama uchun Koshi masalasi»** deb nomlangan. Bu bobning birinchi ikki bo‘limida, dissertatsiya ishining tahlili uchun zarur bo‘lgan asosiy dastlabki tushunchalar, ta’riflar va teoremalar kiritilgan.

Bu bobning uchinchi paragrafi birinchi va α-tartibli bir o‘lchamli differensial tenglama uchun Koshi masalasini yechishga qaratilgan.

Ushbu

$$\rho\frac{\partial u(t,x)}{\partial t}+\mathbb{D}_t^{(\alpha)}u(t,x)-u_{xx}(t,x)=0,\quad t>0, x\in\mathbb{R},\tag{1}$$

$$u(0,x)=\varphi(x),\quad x\in\mathbb{R}\tag{2}$$

Koshi masalasi berilgan bo‘lsin, bu yerda ρ berilgan musbat haqiqiy son, $\mathbb{D}_t^{(\alpha)}$ esa $\alpha\in(0,1)$-tartibli Djrbashian-Kaputo kasr hosilasi, ya’ni,

$$\left(\mathbb{D}_t^{(\alpha)}u\right)(t,x)=\frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\left[\frac{d}{dt}\int_0^t(t-s)^{-\alpha}u(s,x)ds-t^{-\alpha}u(0,x)\right]$$

$$=\frac{d}{dt}(I_{0+}^{1-\alpha}u)(t,x)-\frac{t^{-\alpha}}{\Gamma(1-\alpha)}u(0,x)\tag{3}$$

bo‘lib, bunda α-tartibli Riman-Liuvill chap kasr integrali

$$(I_{0+}^{\alpha}u)(t,x)=\frac{1}{\Gamma(\alpha)}\int_0^t(t-s)^{\alpha-1}u(s,x)ds\tag{4}$$

ko‘rinishida aniqlangan va φ berilgan funksiya.

(1), (2) masala yechimining mavjudlik shartlarini aniqlashdan oldin, avvalo, klassik yechimining ta’rifini beraylik.

1-ta’rif. *Agar (i) har bir* $x\in\mathbb{R}$ *da* $u_t(t,x)\in C(t>0)$*;*

(ii) har bir $t>0$ *da* $u(t,x)$ *funksiya* x *o‘zgaruvchi bo‘yicha ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi;*

(iii) ixtiyoriy $x\in\mathbb{R}$ *da* $u(t,x)\in C(t\geq 0)$ *va uning kasr* $(I_{0+}^{1-\alpha}u)(t,x)$ *integrali* $t>0$ *lar uchun* t *bo‘yicha uzluksiz differnsiallanuvchi;*

(iv) (1) tenglama va (2) boshlang‘ich shartni odatdagi ma’noda qanoqlantirsa, u holda $u(t,x)$ $(t\geq 0, x\in\mathbb{R})$ *funksiyaga (1), (2) masalaning klassik yechimi deyiladi.*

Bu paragrafning asosiy natijasi quyidagi teoremalarda o‘z aksini topgan.

1-teorema. *Faraz qilaylik,* $0<\alpha<1$ *va* $\rho>0$ *bo‘lsin. Agar* $\varphi(x)\in C(\mathbb{R})\cap L^{\infty}(\mathbb{R})$ *bo‘lsa, u holda (1), (2) Koshi masalasining yagona klassik yechimi mavjud va bu yechim*

$$u(t,x)=\int_{\mathbb{R}}\mathcal{G}^{\alpha}(t,x-\xi)\varphi(\xi)d\xi\tag{5}$$

formula orqali beriladi, bu yerda

$$\mathcal{G}^{\alpha}(t,x):=\mathcal{G}_1^{\alpha}(t,x)+\mathcal{G}_2^{\alpha}(t,x),$$

$$\mathcal{G}_1^\alpha(t,x) = \frac{1}{2\pi^{1/2}|x|}\sum_{k=0}^{\infty}\frac{(-1)^k}{\rho^k k!}t^{(1-\alpha)k}H_{1,2}^{2,0}\left[\frac{\sqrt{\rho}}{2\sqrt{t}}|x|\,\middle|\begin{matrix}(1+(1-\alpha)k,1/2)\\(1/2,1/2),(1+k,1/2)\end{matrix}\right],$$

$$\mathcal{G}_2^\alpha(t,x) = \frac{1}{2\pi^{1/2}|x|}\sum_{k=0}^{\infty}\frac{(-1)^k}{\rho^{k+1} k!}t^{(1-\alpha)(k+1)}H_{1,2}^{2,0}\left[\frac{\sqrt{\rho}}{2\sqrt{t}}|x|\,\middle|\begin{matrix}(1+(1-\alpha)(k+1),1/2)\\(1/2,1/2),(1+k,1/2)\end{matrix}\right],$$

va $H_{p,q}^{m,n}(z) -$ *Foksning H-funksiyasi. Undan tashqari, barcha tayin* $t > 0$ *lar uchun bu yechim* $|x| \to \infty$ *da nolga intiladi.*

2-teorema. *Faraz qilaylik,* $u(t,x)$ *funksiya (1), (2) masalaning klassik yechimi bo‘lib,* $\varphi(x) \equiv 0$ *bo‘lsin. Agar*

$$|u(t,x)| \le M_1 \exp\{M_2|x|^\mu\}, \quad M_1, M_2 > 0, \ \mu < 2$$

bo‘lsa, u holda $u(t,x) \equiv 0.$

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **«Cheksiz va chegaralangan sohalarda vaqt-kasr hosilali diffuziya tenglamasidan koeffitsiyent va manba funksiyalarini aniqlash»** deb nomlangan bo‘lib, unda vaqt va fazoviy o‘zgaruvchilarga bog‘liq koeffitsiyent va manba funksiyalarni qo‘shimcha shartlar orqali aniqlash masalasi tadqiq qilinadi.

Dastlab, ushbu

$$\left(\mathbb{D}_t^{(\alpha)}u\right)(t,\bar{x}) - \Delta u(t,\bar{x}) + q(t,x)u(t,\bar{x}) = f(t,\bar{x}), \quad (t,\bar{x}) \in \mathbb{R}_T^2 \qquad (6)$$

vaqt-kasr diffuziya tenglamasini

$$u(0,\bar{x}) = \varphi(\bar{x}), \quad \bar{x} \in \mathbb{R}^2 \qquad (7)$$

boshlang‘ich shart bilan birgalikda qaraymiz, bu yerda $\bar{x} = (x,y) \in \mathbb{R}^2, \mathbb{R}_T^2 = \{(t,\bar{x}) : \bar{x} \in \mathbb{R}^2, 0 < t \le T\}$, $\Delta := \partial_x^2 + \partial_y^2$ va $f(t,\bar{x}), \varphi(\bar{x})$ berilgan yetarlicha silliq funksiyalar, $\mathbb{D}_t^\alpha, 0 < \alpha < 1$ Djrbashiyan-Kaputo kasr hosilasi ((3) formulaga qarang).

1-teskari masala. *(6), (7) to‘g‘ri masalaning yechimi haqida*

$$u(t,x,0) = g(t,x), \quad x \in \mathbb{R}, t \ge 0 \qquad (8)$$

qo‘shimcha shartdan foydalanib $q(t,x), x \in \mathbb{R}, t \ge 0$ *funksiyani aniqlashdan iborat, bu yerda* $g(t,x)$ *berilgan yetarlicha silliq funksiya.*

2-ta’rif. $u(t,\bar{x})$ *funksiya (6), (7) masalaning klassik yechimi deyiladi, agar*

(i) har bir $t > 0$ *uchun* $\bar{x}$ *bo‘yicha ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi;*

(ii) ixtiyoriy $\bar{x} \in \mathbb{R}^2$ *da* t *o‘zgaruvchining funksiyasi sifatida* $[0,T]$ *da uzluksiz, va uning* $I_{0+}^{1-\alpha}u(t,\bar{x})$ *kasr integrali* t *bo‘yicha* $t > 0$ *da uzluksiz differensiallanuvchi;*

(iii) (6) tenglama va (7) boshlang‘ich shartni odatdagi ma’noda qanoatlantirsa.

1-lemma. *Agar berilgan funksiyalar* $q(t,x) \in C\left([0,T]; C_b^l(\mathbb{R})\right)$, $f(t,\bar{x}) \in C\left([0,T]; C_b^{l,l}(\mathbb{R}^2)\right)$, $\varphi(\bar{x}) \in C_b^{l,l}(\mathbb{R}^2)$ *sinflardan bo‘lsa, u holda (6), (7) to‘g‘ri* *masalaning* $u(t,\bar{x}) \in C^{1-\alpha,2}(\mathbb{R}_T^2) \cap C(\overline{\mathbb{R}}_T^2)$ *sinfga tegishli yagona yechimi mavjud, bu yerda* $l \in (0,1)$.

3-teorema. *Agar* $f(t,\bar{x}) \in C\left([0,T]; C_b^{l,l+1}(\mathbb{R}^2)\right)$, $\varphi(\bar{x}) \in C_b^{l,l+2}(\mathbb{R}^2)$, $g(t,x) \in C^1([0,T]; C_b^{l+2}(\mathbb{R}))$, $|g(t,x)| \geq g_0 > 0$ *bo'lsa, u holda shunday yetarlicha kichik* $T^* \in (0,T)$ *soni topiladiki (6)-(8) teskari masalaning* $q(t,x) \in C([0,T^*]; C_b^l(\mathbb{R}))$ *sinfga tegishli yagona yechimi mavjud, bu yerda* $l \in (0,1)$.

Aytaylik T tayin musbat haqiqiy son bo'lsin. $\Omega(\gamma_0)$ ($\gamma_0 > 0$ tayinlangan haqiqiy son) orqali $\max\{\| f \|^{l,l+1}, |\varphi|^{l,l+2}, \| g \|_1^l\} \leq \gamma_0$ tengsizlikni va 3-teorema shartlarini qanoatlantiruvchi berilgan (f,φ,g) funksiyalar to'plamini belgilaymiz, $Q(\gamma_1)$ orqali esa $\| q \|^l \leq \gamma_1$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi $q(t,x) \in C\left([0,T^*]; C_b^l(\mathbb{R})\right)$ funksiyalar sinfini belgilaylik, bu yerda γ_1 musbat haqiqiy son va $l \in (0,1)$.

4-teorema. *Faraz qilaylik* $(f,\varphi,g) \in \Omega(\gamma_0), (\tilde{f},\tilde{\varphi},\tilde{g}) \in \Omega(\gamma_0)$ *va* $(q,\tilde{q}) \in Q(\gamma_1)$ *bo'lsin. U holda (6)-(8) teskari masalaning yechimi uchun quyidagi turg'unlik bahosi o'rinli*

$$\| q - \tilde{q} \|^l \leq c\left(\| f - \tilde{f} \|^{l,l+1} + |\varphi - \tilde{\varphi}|^{l,l+2} + \|g - \tilde{g}\|_1^l\right),$$

bu yerda c *o'zgarmas* T, l, γ_0, γ_1 *larga bog'liq.*

Bu bobning keyingi paragrafida, biz ikkita teskari masalani, ya'ni vaqt va fazoviy o'zgaruvchilarga bog'liq manba funksiyalarini topish masalalarini tadqiq qilamiz.

Ushbu

$$Q := D \times (0,T], \quad D := \{(x,y): 0 < x < l, 0 < y < q\}$$

parallelepiped sohada quyidagi to'g'ri masalani qarab chiqamiz: Q sohada aniqlangan va

$$u(t,x,y) \in X_T, \tag{9}$$

$$\partial_t^\alpha u - a^2\left(u_{xx} + u_{yy}\right) = F(t,x,y), \ (t,x,y) \in Q, \tag{10}$$

$$u(t,0,y) = u(t,l,y) = 0, \quad 0 \leq y \leq q, \ 0 \leq t \leq T, \tag{11}$$

$$u(t,x,0) = u(t,x,q) = 0, \ 0 \leq x \leq l, \ 0 \leq t \leq T, \tag{12}$$

$$u(0,x,y) = \varphi(x,y), \quad 0 \leq x \leq l, \ 0 \leq y \leq q \tag{13}$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $u(t,x,y)$ funksiyani topish talab etilsin, bu yerda $X_T := \{u: u \in C(\bar{Q});\ u(t,\cdot,\cdot) \in C^2(D),\ t \in (0,T];\ u_t(\cdot,x,y) \in C(0,T] \cap L^1(0,T),\ (x,y) \in D\}$ va φ berilgan funksiya.

(10) tenglama uchun qo'yilgan boshlang'ich-chegaraviy shartlar asosida quyidagi teskari masalalarni ko'rib chiqamiz.

2-teskari masala. *Faraz qilaylik,* $F(t,x,y) = f(x,y)g(t)$ *bo'lsin. Quyidagi*

$$g(t) \in AC[0,T], \tag{14}$$

$$u(t,x_0,y_0) = h(t), \quad 0 \leq t \leq T \tag{15}$$

qo'shimcha va (9)-(13) shartlarni qanoatlantiruvchi $u(t,x,y)$ *va* $g(t)$ *funksiyalar juftligini toping, bu yerda* $(x_0,y_0) \in D$ *berilgan tayin nuqta,* $\varphi(x,y)$, $h(t)$,

$f(x,y)$ *−berilgan yetarlicha silliq funksiyalar bo'lib,* $\varphi(x_0,y_0)=h(0)$ *muvofiqlik sharti o'rinli.*

3-teskari masala. *Faraz qilaylik,* $F(t,x,y)=f(x,y)g(t)$ *bo'lsin. Ushbu*

$$f(x,y)\in C(\overline{D}), \tag{16}$$

$$u(t_0,x,y)=\psi(x,y),\quad (x,y)\in\overline{D} \tag{17}$$

qo'shimcha shart va (9)-(13) tengliklarni qanoatlantiruvchi $u(t,x,y)$ *va* $f(x,y)$ *funksiyalar juftligini toping, bu yerda* $t_0\in(0,T]$ *berilgan son,* $\varphi(x,y)$*,* $\psi(x,y)$*,* $g(t)$ *−ma'lum yetarlicha silliq funksiyalar.*

Dastlab to'g'ri masala yechimi uchun quyidagi energiya integral tengsizligini keltiramiz.

2-lemma. *Faraz qilaylik,* u *funksiya (9)-(13) masalaning klassik yechimi bo'lsin, u holda*

$$\frac{1}{2\Gamma(1-\alpha)}\iint_D\int_0^T\frac{u^2}{(T-t)^\alpha}dtdxdy+a^2\iint_D\int_0^T\left(u_x^2+u_y^2\right)dtdxdy$$
$$\le\frac{T^{1-\alpha}}{2\Gamma(2-\alpha)}\iint_D\varphi^2dxdy+\iint_D\int_0^T uFdtdxdy$$

tengsizlik o'rinli.

(9)-(13) masala yechimining yagonaligi 2-lemmadan bevosita kelib chiqadi. Endi (9)-(13) masalaning klassik yechimi mavjudligiga to'xtalamiz.

5-teorema. *Aytaylik, berilgan* $\varphi(x,y)\in C^3(\overline{D})$ *funksiya ushbu*

$$\varphi(0,y)=\varphi_{xx}(0,y)=\varphi(l,y)=\varphi_{xx}(l,y),\quad 0\le y\le q,$$
$$\varphi(x,0)=\varphi_{yy}(x,0)=\varphi(x,q)=\varphi_{yy}(x,q),\quad 0\le x\le l$$

va $F(t,x,y)\in C\left([0,T];C^2(\overline{D})\right)\cap AC\left([0,T];C(\overline{D})\right)$ *funksiya esa ushbu*

$$F(t,0,y)=F(t,l,y)=0,\quad 0\le y\le q,\quad 0\le t\le T,$$
$$F(t,x,0)=F(t,x,q)=0,\quad 0\le x\le l,\quad 0\le t\le T$$

shartlarni qanoatlantirsin. U holda (9)-(13) to'g'ri masala yagona $u\in X_T$ *klassik yechimga ega.*

Yuqorida olingan natijadan foydalangan holda, 2- va 3-teskari masalalarni o'rganamiz.

6-teorema. *Faraz qilaylik* $\varphi(x,y)\in C^4(\overline{D})$*,*

$$\varphi(0,y)=\varphi_{xx}(0,y)=\varphi(l,y)=\varphi_{xx}(l,y),\quad 0\le y\le q,$$
$$\varphi(x,0)=\varphi_{yy}(x,0)=\varphi(x,q)=\varphi_{yy}(x,q),\quad 0\le x\le l$$

bo'lib, $f(x,y)\in C^4(\overline{D})$ *funksiya esa*

$$f(0,y)=f_{xx}(0,y)=f(l,y)=f_{xx}(l,y),\quad 0\le y\le q,$$
$$f(0,x)=f_{yy}(0,x)=f(x,q)=f_{yy}(x,q),\quad 0\le x\le l$$

shartlarni qanoatlantirsin. Undan tashqari, ushbu

$$f(x_0,y_0)\ne0,\quad h''(t)\in L^1(0,T), h(0)=\varphi(x_0,y_0)$$

shartlar bajarilsin. U holda 2-teskari masalaning $g(t)\in AC[0,T]$ *sinfga tegishli yagona yechimi mavjud.*

3-lemma. *Agar* $g(t)\in AC[0,T]$ *va* $|g(t)|\ge g_0=const>0$ *bo'lsa, u holda shunday* $C_0>0$ *topiladiki, barcha* $m,n\in\mathbb{N}$ *lar uchun*

$$|g_{mn}(t_0)| \geq \frac{C_0}{m^2+n^2}$$

tengsizlik o‘rinli bo‘ladi, bu yerda

$$g_{mn}(t) = \int_0^t (t-\tau)^{\alpha-1} E_{\alpha,\alpha}(-a^2\lambda_{mn}^2(t-\tau)^\alpha) g(\tau) d\tau$$

va C_0 o‘zgarmas m, n larga bog‘liq emas.

7-teorema. *Faraz qilaylik, berilgan $\varphi(x,y)$ funksiya 6-teorema shartlarini, shuningdek $\psi(x,y) \in C^4(\bar{D})$ funksiya*

$$\psi(0,y) = \psi_{xx}(0,y) = \psi(l,y) = \psi_{xx}(l,y), \quad 0 \leq y \leq q,$$
$$\psi(0,x) = \psi_{yy}(0,x) = \psi(x,q) = \psi_{yy}(x,q), \quad 0 \leq x \leq l$$

shartlarni qanoatlantirsin. Undan tashqari, $g(t)$ funksiya 3-lemma shartlarini bajarsin, u holda 3-teskari masala yagona yechimga ega.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **«Kasr tartibli diffuziya-to‘lqin tenglamalaridan koeffitsiyentni aniqlash teskari masalalari»** deb nomlangan bo‘lib, vaqt o‘zgaruvchisiga bo‘g‘liq bo‘lgan koeffitsiyentni aniqlash masalasiga bag‘ishlangan.

Dastlab, kasr diffuziya tenglamasi uchun koeffitsiyentli teskari masalani ko‘rib chiqamiz. Faraz qilaylik, Ω-chegarasi $\partial\Omega$ yetalicha silliq, $\mathbb{R}^N$ da chegaralangan soha bo‘lsin. $Q_T := \{(t,x) : x \in \Omega \subset \mathbb{R}^N, 0 < t \leq T\}$ sohada quyidagi kasr-diffuziya

$$\mathbb{D}_t^{(\alpha)} u(t,x) = Au(t,x) + q(t)u(t,x) + f(t,x), \quad (t,x) \in Q_T \tag{18}$$

tenglamasini qarab chiqamiz, bu yerda $0 < \alpha < 1$ va

$$-Au(t,x) = -\sum_{i=1}^N \frac{\partial}{\partial x_i}\left(\sum_{j=1}^N a_{ij}(x) \frac{\partial}{\partial x_j} u(t,x)\right), \quad (t,x) \in Q_T$$

simmetrik va tekis elliptik operator bo‘lib, aniqlanish sohasi $D(-A) = H^2(\Omega) \cap H_0^1(\Omega)$ ga teng. Undan tashqari uning koeffitsiyentlari uchun ushbu

$$a_{ij} = a_{ji}, \quad 1 \leq i,j \leq N, \quad a_{ij} \in C^1(\bar{\Omega}),$$
$$\nu_1 \sum_{i=1}^N |\xi_i|^2 \leq \sum_{i,j=1}^N a_{ij}(x)\xi_i\xi_j \leq \nu_2 \sum_{i=1}^N |\xi_i|^2, x \in \bar{\Omega}, \xi \in \mathbb{R}^N, \nu_1, \nu_2 > 0$$

shartlar o‘rinli.

(18) tenglamani

$$u(0,x) + \beta u(T,x) = \varphi(x), \quad x \in \Omega \tag{19}$$

nolokal boshlang‘ich shart va

$$u(t,x) = 0, \quad x \in \partial\Omega, \quad t \in (0,T) \tag{20}$$

bir jinsli chegaraviy shart hamda birinchi tur

$$\int_\Omega \omega(x)u(t,x)dx = h(t), \quad 0 \leq t \leq T \tag{21}$$

integral shart bilan birga qaraymiz, bu yerda $\beta \geq 0$ va $f(t,x), \varphi(x), \omega(x), h(t)$ –ma’lum yetarlicha silliq funksiyalar.

4-teskari masala. *(18) tenglama va (19)-(21) shartlarni qanoatlantiruvchi* $(u,q)\in Y_T$ *funksiyalar juftligini toping, bu yerda*

$$Y_T = C\big([0,T];H^2(\Omega)\big)\times C[0,T].$$

Berilganlar uchun quyidagilarni talab qilamiz:

(A1) $\varphi\in H^2(\Omega)\cap H_0^1(\Omega),\, f\in C([0,T];D(-A)^{\varepsilon})$ bu yerda $0<\varepsilon<1$;

(A2) $h(0)+\beta h(T)=(\omega,\varphi)$;

(A3) $\mathbb{D}_t^{(\alpha)}h\in C[0,T]$ bo‘lib, barcha $t\in[0,T]$ uchun ushbu

$$|h(t)|\geq\frac{1}{h_0}>0,\;\; t\in[0,T]$$

tengsizlikni qanoatlantirsin, bu yerda h_0 musbat o‘zgarmas son;

(A4) $\omega(x)\in L^2(\Omega)$.

8-teorema. *Faraz qilaylik (A1)-(A4) shartlar bajarilsin. U holda (18)-(21) teskari masalaning yetarlicha kichik* $T>0$ *larda yagona* $(u,q)\in Y_T$ *yechimi mavjud.*

9-teorema. *Aytaylik berilgan funksiyalar uchun (A1)-(A4)shartlar bajarilsin. Agar* $(u_i,q_i)\in Y_T$ $(i=1{,}2)$ *funksiyalar (18)-(21) teskari masalaning ikkita teng bo‘lmagan yechimlari bo‘lsa, u holda barcha* $0\leq t\leq T$ *lar uchun* $(u_1,q_1)=(u_2,q_2)$.

Bobning ikkinchi paragrafida bir o‘lchamli vaqt-kasr diffuziya-to‘lqin tenglamasida vaqtga bog‘liq koeffitsiyentni aniqlash teskari masalasini tadqiq qilamiz.

$D_T:=\{(t,x):0<t\leq T, 0<x<1\}$ sohada ushbu

$$\mathbb{D}_t^{(\alpha)}u(t,x)-\mathcal{L}u(t,x)=q(t)u(t,x)+f(t,x),\quad (t,x)\in D_T \tag{22}$$

kasr to‘lqin tenglamasini qaraylik, bu yerda $\mathbb{D}_t^{(\alpha)}$ esa $\alpha\in(1{,}2)$ -tartibli Djrbashian-Kaputo kasr hosilasi, ya’ni,

$$\left(\mathbb{D}_t^{(\alpha)}u\right)(t,x)=\frac{1}{\Gamma(2-\alpha)}\frac{\partial}{\partial t}\int_0^t(t-s)^{-\alpha+1}u_s(s,x)ds-t^{-\alpha+1}\frac{u_t(0,x)}{\Gamma(2-\alpha)},$$

va $\mathcal{L}:=\partial_{xx}$.

Yuqoridagi kasr to‘lqin tenglamasini quyidagi nolokal

$$u(0,x)+\delta_1u(T,x)=\varphi(x),\quad u_t(0,x)+\delta_2u_t(T,x)=\psi(x),\;\; x\in(0{,}1) \tag{23}$$

boshlang‘ich va

$$u(t,0)=u(t,1)=0,\quad 0<t<T \tag{24}$$

chegaraviy hamda

$$\int_0^1\omega(x)u(t,x)dx=h(t),\quad 0\leq t\leq T \tag{25}$$

integral shart bilan birgalikda qaraymiz, bu yerda $\delta_1,\delta_2\geq0$ va $f(t,x),\varphi(x),\psi(x),\omega(x),h(t)$ –berilgan funksiyalar.

5-teskari masala. *(22) tenglama va (23)-(25) shartlarni qanoatlantiruvchi* $(u,q)\in C([0,T];H^2(0{,}1))\cap C^1([0,T];L^2(0{,}1))\times C[0,T]$ *funksiyalar juftligini toping.*

Quyidagi

$$\rho(\eta) = 1 + (\delta_1 + \delta_2)E_{\alpha,1}(-\eta) +$$
$$+\delta_1\delta_2\left[\left(E_{\alpha,1}(-\eta)\right)^2 + \eta E_{\alpha,2}(-\eta)E_{\alpha,\alpha}(-\eta)\right], \quad \eta > 0.$$

funksiyani kiritib, mos ravishda $\eta_1 < \eta_2 < \cdots < \eta_N$ lar orqali $\rho(\eta) = 0$ tenglamaning ildizlarini belgilaymiz. Λ orqali esa

$$\Lambda = \bigcup_{k=1}^{\infty}\left\{\left(\frac{\eta_1}{(\pi k)^2}\right)^{1/\alpha}, \dots, \left(\frac{\eta_N}{(\pi k)^2}\right)^{1/\alpha}\right\}$$

to‘plamni belgilaylik.

Berilganlar uchun quyidagilarni talab qilamiz:

(B1) $f \in C([0,T]; D(-\mathcal{L})^{\frac{1}{\alpha}})$), $\varphi \in H^2(0,1) \cap H_0^1(0,1)$, $\psi \in H_0^1(0,1)$;

(B2) $h(0) + \delta_1 h(T) = (\omega, \varphi)$, $h'(0) + \delta_2 h'(T) = (\omega, \psi)$;

(B3) $h \in C^2[0,T]$ bo‘lib, barcha $t \in [0,T]$ uchun ushbu

$$|h(t)| \geq \frac{1}{h_0} > 0$$

tengsizlikni qanoatlantirsin, bu yerda h_0 musbat o‘zgarmas son;

(B4) $T \notin \Lambda$;

(B5) $\omega(x) \in H_0^2(0,1)$.

10-teorema. *Faraz qilaylik (B1)-(B5) shartlar bajarilsin. U holda yetarlicha kichik* $T > 0$ *lar uchun (22)-(25) teskari masalaning* $(u,q) \in C\left([0,T]; H^2(0,1)\right) \cap C^1\left([0,T]; L^2(0,1)\right) \times C[0,T]$ *sinfga tegishli yagona yechimi mavjud.*

Aytaylik, H separabel Gilbert fazosi bo‘lsin. Unda skalyar ko‘paytma va norma aniqlangan bo‘lib, ularni mos ravishda $(\cdot,\cdot)$ va $\|\cdot\|$ kabi belgilaylik. $A: H \to H$ operator H Gilbert fazosida aniqlangan, o‘z-o‘ziga qo‘shma, musbat, chegaralanmagan ixtiyoriy operator bo‘lsin. Faraz qilaylik, A operator H Gilbert fazosida to‘la ortonormal $\{e_n\}$ xos funksiyalar sistemasiga va $\{\lambda_n\}$ musbat xos qiymatlar to‘plamiga ega bo‘lsin. Xos qiymatlarni qayta nomerlash yordamida ularni kamaymaydigan qilib nomerlab olamiz, ya’ni $0 < \lambda_1 \leq \lambda_2 \leq \cdots \to +\infty$ kabi yozib olamiz.

Bobning oxirgi uchinchi paragrafida kasr diffuziya tenglamasidan

$$\partial_t^\alpha u(t) + Au(t) + q(t)u(t) = f(t), \quad 0 < t \leq T \tag{26}$$

vaqt o‘zgaruvchisiga bog‘liq koeffitsiyentni aniqlashning to‘g‘ri va teskari masalalarini tadqiq qilamiz, bu yerda A operator yuqorida aniqlangan.

Berilgan $\alpha \in (0,1)$, $q(t) \in C[0,T]$ va $f(t) \in C([0,T]; H)$ larga ko‘ra (26) tenglama hamda

$$u(0) = \varphi \tag{27}$$

